



O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI

Turopov Maqsudjon

Toshkent arxitektura - qurilish universiteti

ORCID: 0009 0004 8680 9755

maqsudjon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirish jarayonida transport infratuzilmasini samarali boshqarishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari tahlil etilgan. Zero, ichki turizm nafaqat aholi uchun madaniy-ma'rifiy imkoniyat, balki hududiy iqtisodiy rivojlanish, ish o'rinlari yaratish va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi omil sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, transport infratuzilmasini klasterli rejalashtirish, «turizmga moslashgan transport» konsepsiyasini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish va raqamli boshqaruv platformalarini joriy qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ichki turizm, transport infratuzilmasi, boshqaruv modeli, turizm logistikasi, klasterli infratuzilma, jamoat transporti, turistik marshrutlar, aqlli transport tizimlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, davlat-xususiy sheriklik, hududiy transport siyosati, turistik xizmat sifati, raqamli boshqaruv, turizmدا innovatsion yondashuvlar, O'zbekiston turizmi.

ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРОЙ В РАЗВИТИИ ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Турупов Максуджон

Ташкентский архитектурно-строительный университет

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические основы и практические механизмы эффективного управления транспортной инфраструктурой в процессе развития внутреннего туризма в Узбекистане. Ведь внутренний туризм приобретает значение не только как культурно-образовательная возможность для населения, но и как фактор, способствующий территориальному экономическому развитию, созданию рабочих мест и социальной стабильности. Также разработаны предложения и рекомендации по кластерному планированию транспортной инфраструктуры, внедрению концепции «транспорт, адаптированный к туризму», укреплению государственно-частного партнерства, внедрению платформ цифрового управления.

Ключевые слова: внутренний туризм, транспортная инфраструктура, модель управления, логистика туризма, кластерная инфраструктура, общественный транспорт, туристские маршруты, интеллектуальные транспортные системы, социально-экономическое развитие, государственно-частное партнерство, территориальная транспортная политика, качество туристских услуг, цифровое управление, инновационные подходы в туризме, туризм Узбекистана.

FEATURES OF THE MANAGEMENT OF TRANSPORT INFRASTRUCTURE IN THE DEVELOPMENT OF DOMESTIC TOURISM ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

Turopov Maqsudjan

Tashkent university of architecture and civil engineering

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations and practical mechanisms for the effective management of transport infrastructure in the process of developing domestic tourism activities in Uzbekistan. After all, domestic tourism is important not only as a cultural and educational opportunity for the population, but also as a factor serving territorial economic development, job creation and social stability. Proposals and recommendations have also been developed for cluster planning of transport infrastructure, the introduction of the concept of "Tourism-adapted transport", strengthening public-private partnership and the introduction of digital management platforms.*

Keywords: *domestic tourism, transport infrastructure, management model, tourism logistics, cluster infrastructure, public transport, tourist routes, smart transport systems, socio-economic development, public-private partnership, regional transport policy, quality of tourist service, digital management, innovative approaches to tourism, tourism of Uzbekistan.*

Kirish.

So'nggi yillarda dunyo mamlakatlari turizm sohasini milliy iqtisodiyot rivojining strategik tarmoqlaridan biri sifatida qabul qilmoqda. Turizm faqatgina valyuta tushumini ta'minlash vositasi bo'lib qolmasdan, balki yangi ish o'rinlari yaratish, hududlar rivojini rag'batlantirish, aholi daromadlarini oshirish, mamlakat imijini mustahkamlash va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda ham ushbu sohaga bo'lgan e'tibor oxirgi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Turizmni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi turistik marshrutlar yaratish, sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Bu islohotlar nafaqat xalqaro sayyohlar, balki ichki turizm faoliyatini ham jadal rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Aholining turizm xizmatlariga bo'lgan talabining ortishi, milliy meros ob'ektlariga, tabiiy maskanlarga va hududiy urf-odatlariga qiziqishining oshib borayotgani ichki turizmning katta istiqbolga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, amaliyotda ichki turizmning barqaror va tizimli rivojlanishi ko'p jihatdan infratuzilmaviy omillarga, xususan, transport tarmoqlarining holatiga, qulayligiga va ularni boshqarish samaradorligiga bog'liq ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Turizm xizmatlarini yuqori darajada tashkil etish uchun sayyohlarning harakatlanish erkinligini ta'minlash, ularni maqsadli manzilga xavfsiz, tez va qulay yetkazish imkonini beruvchi transport infratuzilmasi zarur.

Transport infratuzilmasi nafaqat turizm logistikasining asosi, balki turistik tajribaning bir qismi hisoblanadi. Masalan, yaxshi tashkil etilgan temir yo'l, avtobus yoki havo qatnovi nafaqat sayyohni manzilga yetkazadi, balki uning mamlakat haqidagi umumiy taassurotini ham shakllantiradi. Shu boisdan transport infratuzilmasini rivojlantirish va uni boshqarish ichki turizmning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon global iqtisodiyotida turizm sohasi nafaqat daromad manbai, balki ijtimoiy barqarorlik, madaniy almashinuv va hududiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon turistik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm sohasi jahon yalpi ichki mahsulotining 10 foizdan ortig'ini tashkil etib, har 10 ish o'rnidan biri ushbu sohaga to'g'ri keladi. Turizmning nafaqat xalqaro, balki ichki yo'nalishi ham yuqori sur'atlarda o'smoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi sharoitda ko'plab davlatlar ichki turizmni iqtisodiy barqarorlikni saqlash vositasi sifatida ko'rib chiqmoqda.

O'zbekistonda ham ichki turizmni rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. 2019 yil 5 yanvardagi Prezident qarori (PQ-4095-son) bilan tasdiqlangan 2019–2025 yillarda turizm sohasini rivojlantirish strategiyasida ichki turizmni rag'batlantirish, hududiy infratuzilmani yaxshilash, logistika tizimini takomillashtirish va transport xizmatlarini kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu jumladan bir qator ishlarni amalga oshirish belgilangan. Jumladan (Farmon, 2019):

turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni implementatsiya qilish;

turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda maqbul va qulay turizm muhitini yaratish;

transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish;

turizm bozorining turli segmentlariga yo'naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish;

respublika ichida turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni qondirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sub'ektlarining faolligini rag'batlantirishni ta'minlovchi ichki turizmni rivojlantirish;

O'zbekiston Respublikasi turizm mahsulotini xalqaro va ichki turizm bozorlarida targ'ib qilish, mamlakatning sayohat va dam olish uchun xavfsiz sifatidagi imidjini mustahkamlash;

turizm tarmog'i uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

Shuningdek, 2021 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonunida ham ichki turizmga alohida e'tibor qaratilib, transport infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalar belgilangan (Qonun, 2019).

Biroq, amaliy sharoitda mavjud muammolar ichki turizm faoliyatini to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Jumladan: qator hududlarda yo'llar holati qoniqarsiz bo'lib, sayyohlarning turizm ob'ektlariga yetib borishi mushkullashmoqda; temir yo'l va avtobus qatnovlari barcha turistik maskanlarni qamrab olmagan; mavjud transport xizmatlarining navbat, narx va qulaylik nuqtai nazaridan raqobatbardosh emasligi; turistik logistika tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yetarlicha joriy etilmagan; hududiy infratuzilmalar rivoj darajasi turlicha bo'lib, resurslar noteng taqsimlangan.

Turizm infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi sifatida transport tarmoqlari ahamiyati bevosita sayyohlar harakatchanligi, ularning xizmatlarga bo'lgan qoniqishi va turistik yo'nalishlarning jozibadorligiga ta'sir ko'rsatadi. Infratuzilma qanchalik samarali boshqarilsa, ichki turizm shunchalik tizimli va barqaror rivojlanadi. Bu borada transport infratuzilmasini faqat jismoniy holatda yaxshilash yetarli emas — uning boshqaruv tizimini ham zamonaviy nazariy asoslar asosida qayta tashkil etish talab etiladi.

Xalqaro amaliyotda jumladan, Germaniya, Yaponiya, Turkiya va Malayziya kabi davlatlar tajribasida - ichki turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasini maqsadli boshqarish alohida e'tiborda bo'lib, bu mamlakatlarda "turizm logistikasi", "integral transport tizimlari" va "aqlli transport boshqaruvi" kabi nazariy modellar keng joriy qilingan. Ushbu yondashuvlar nafaqat harakatlanishni yengillashtiradi, balki turizmning raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi.

O'zbekiston uchun mazkur tajriba alohida ahamiyatga ega, chunki mamlakatdagi tarixiy va tabiiy resurslar turli hududlarda joylashgan bo'lib, ularga samarali transport yetib borishi ichki turizmning asosiy sharti hisoblanadi. Shunday ekan, mavzuning ilmiy-amaliy dolzarbligi shundaki, bugungi kun talablaridan kelib chiqib transport infratuzilmasini ichki turizm

manfaatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish, uning boshqaruv tizimini yaxshilash bo'yicha nazariy asos va takliflar ishlab chiqish zarur.

Ichki turizmning barqaror va samarali rivojlanishi transport infratuzilmasi boshqaruvini modernizatsiya qilish, uning strategik va tizimli ravishda tashkil etilishi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu masalaning nazariy jihatdan tahlili va ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqilishi ichki turizm salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan ilmiy va amaliy bazani shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Ichki turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasi va uni samarali boshqarish masalasi ilmiy doirada turli yondashuvlar bilan tadqiq etib kelinmoqda. Mavzuning o'rganilishida milliy va xalqaro tadqiqotchilar turli jihatlariga e'tibor qaratishgan: ayrimlari infratuzilmaning texnik va logistik tomonlarini ko'rib chiqqan bo'lsa, boshqalari uning boshqaruv modeli, iqtisodiy samaradorligi yoki ijtimoiy ta'sirini tahlil qilishgan.

Yusupov (2021) o'zining tadqiqotlarida transport infratuzilmasini «turizm tizimining qon tomirlari» deb atab, uning holati turizmning barqarorligiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qilishini ta'kidlaydi. U infratuzilmani faqat jismoniy ob'ektlar emas, balki ularni boshqarishga oid strategiyalar bilan birga ko'rib chiqishni taklif qiladi. Lekin muallifning ishida transport va turizm o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlari kengroq konseptual yondoshuv asosida tahlil qilinmagan - masalan, infratuzilma investitsiyasi va turistik oqim o'rtasidagi bog'liqlik empirik ma'lumotlar asosida asoslanmagan.

Karimov va Abdullaevlar (2020) tomonidan ichki turizm va transport tarmoqlari o'rtasidagi regional nomutanosiblik masalasini ko'taradi. Ular qayd etishicha, sayyohlik ob'ektlari ko'pincha transport tizimida chetda qolgan hududlarda joylashgan. Ular hududiy transport rejalashtirishda turizm salohiyatini hisobga olish kerakligini ilgari suradi. Biroq tadqiqotda aniq logistik modellar yoki transport samaradorligini baholash metodlari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Qudratov (2019) tomonidan masalaga «turizm logistikasi» konsepsiyasi asosida yondashib, transport infratuzilmasini sayyohning harakat ssenariylari va turizm oqimi logistikasi bilan uzviy bog'laydi. U logistika vositasida sayohatni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va vaqt tejamini ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. Afsuski, muallif taklif etgan nazariy modellar amaliyotda qanday qo'llanilishi, shuningdek, ularning iqtisodiy samaradorligiga oid tahlillar kam.

Mirzabekov (2020) esa o'zining tadqiqotlarida hududiy klasterlar asosida transport tizimini boshqarish g'oyasini ilgari suradi. Uningcha, transport yo'nalishlarini sayyohlik ob'ektlari atrofidagi klasterlar bilan integratsiya qilish yo'l xarajatlarini qisqartiradi, infratuzilma samaradorligini oshiradi. Bu qiziq yondashuv bo'lishiga qaramay, tadqiqotda klaster modellarining toifalari yoki ularni rejalashtirish mexanizmlari nazariy jihatdan yetarlicha chuqur ochib berilmagan.

UNWTO (2023) tashkiloti va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar o'z hisobotlarida transport infratuzilmasini raqamlashtirish, «aqlli mobillik» tizimlarini joriy qilish orqali sayyohlarga qulay sharoit yaratishni tavsiya qiladi. UNWTO «transport va turizm o'rtasidagi integratsiyani institutsional darajada ta'minlash» kerakligini aytib, aks holda turizm sektorining barqaror rivoji mumkin emasligini urg'ulaydi. Jahon banki (2022) esa infratuzilma loyihalarida turizm ehtiyojlarini hisobga olmaslik transportni kam samarali qilayotganini ta'kidlaydi.

Turizm sohasi jahon iqtisodiyotida yuqori dinamikaga ega bo'lgan strategik tarmoq sifatida qaralishi shubhasiz. Hozirgi global sharoitda, ayniqsa postpandemiya davrida ichki turizm nafaqat aholi farovonligi, balki hududiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va ichki bozorni faollashtirish vositasi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Muammo shundaki, O'zbekiston

kabi turizm salohiyati yuqori bo'lgan davlatlarda ham ichki turizm infratuzilmasi, ayniqsa transport tarmog'i, talab darajasida samarali boshqarilmayapti.

Transport boshqaruvida hanuzgacha umumiy logistika, tovar tashish va shaharlararo harakat modeli ustuvor bo'lib kelmoqda. Mening qarashimcha, bu yondashuv zamonaviy ichki turizm talablariga javob bermaydi. Shu sababli, «turizmga yo'naltirilgan transport» konsepsiyasi ishlab chiqilishi kerak. Bu konsepsiyada transport tarmoqlari sayyohlik talab va ehtiyojlari asosida qayta rejalashtiriladi: sayyohlik mavsumlarini hisobga olgan holda qatnovlar jadvali; turistik markazlar bilan bog'liq alohida yo'nalishlar; tematik marshrutlar (tarixiy, ziyorat, ekoturizm uchun alohida qatnovlar); raqamlashtirilgan bilet tizimi, QR-navigatsiya, onlayn kuzatuv xizmatlari.

Buni amalga oshirish uchun transport boshqaruvini turizm sektorining bir qismi sifatida institutsional asosda qayta tashkil etish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlanishda transport infratuzilmasini boshqarishning nazariy jihatlarini ilmiy tahlil qilish va ishlab chiqish jarayonida qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy taqqoslash, mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, shuningdek, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hududiy rivojlanish va turizm o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olgan holda, transport infratuzilmasini markazlashtirilgan emas, klasterlashtirilgan va detsentralizsiya qilingan holda boshqarish zarur. Har bir turizm klasteri uchun - masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Farg'ona vodiysi - uchun alohida transport logistika konsepsiyasi ishlab chiqilishi kerak.

Ayniqsa ichki turizmni rivojlantirishda jamoat transporti va xususiy tashuvchilarning roli katta. Mening ilmiy nuqtai nazarim shundan iboratki, davlat tomonidan faqat yo'l qurilishi emas, balki transport xizmatlari bozorini shakllantirish ham ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Bu borada: mahalliy tashuvchilarga subsidiyalar; turistik yo'nalishlarda litsenziyalashning yengillashtirilishi; aholi uchun "turizm uchun transport" startaplarini qo'llab-quvvatlash; jamoatchilik (aholi, gidlar, mahalliy biznes) ishtirokida yo'nalishlar va qatnov vaqtlarini shakllantirish.

1-jadval

Ichki turizm va transport holati tahlili

№	Hududlar	Turistlar soni (ming kishi)	Asosiy yo'llar uzunligi (km)	Jamoat tarnsport qatnov soni (kunlik)	Transport xizmatlaridan qoniqish (foizda)
1	Samarqand	620	850	95	78
2	Buxoro	480	760	72	74
3	Xiva	310	420	43	68
4	Farg'ona	270	690	61	70
5	Toshkent	890	1120	130	81
6	Qashqadaryo	190	530	38	65

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.

1-jadvalda «Ichki turizm va transport infratuzilmasi» holati tahlil qilindi. Jadvalda O'zbekistonning turli hududlarida ichki turizm oqimi, transport infratuzilmasi ko'rsatkichlari va sayyohlar qoniqish darajasi aks ettirilgan.

2-jadval

O'zbekistondagi asosiy transport infratuzilmasi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	miqdor
Yo'llar umumiy uzunligi	209,496 km
Temir yo'llar umumiy uzunligi	4,669 km
Ichki suv yo'llari uzunligi	1,100 km
Avtomobillar soni	3,051,734
Aeroportlar soni	12

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari.

O'zbekistonning turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarida transport infratuzilmasi holati va uning samaradorligi tahlil qilinganda quyidagi natijalar kuzatildi:

1. Turistlar oqimi va transport aloqasi o'rtasida bog'liqlik mavjud. Toshkent va Samarqand viloyatlari turistlar soni bo'yicha yetakchi hisoblanadi (mos ravishda 890 ming va 620 ming kishi). Ushbu hududlarda jamoat transporti qatnov soni ham yuqori (130 va 95 qatnov). Bu transport infratuzilmasi rivojlangan hududlarda turistlar oqimi ham yuqori ekanini ko'rsatadi.

2. Yo'l uzunligi ko'p bo'lsa ham, sifat va qatnov samaradorligi har doim yuqori emas. Masalan, Qashqadaryo viloyatida asosiy yo'llar uzunligi nisbatan yaxshi (530 km), lekin jamoat transporti qatnov soni past (38), qoniqish darajasi esa barcha hududlar orasida eng past - 65%. Bu esa faqat yo'l mavjudligi emas, balki ularning boshqarilishi va qatnovlar samaradorligi muhimligini ko'rsatadi.

3. Xiva kabi tarixiy turizm markazlarida infratuzilma yetishmasligi muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Xivada 310 ming turist bo'lishiga qaramay, jamoat transporti qatnovi juda kam (43), transport xizmatlaridan qoniqish darajasi ham 68% ni tashkil etadi. Bu holat tarixiy markazlarda mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi qatnovlar tashkil etish zarurligini anglatadi.

4. Turizm xizmatlarining qoniqarli bo'lishi transport sifatining ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lmoqda. Toshkent shahrida turistlar qoniqish darajasi 81% bo'lib, bu transport xizmatlarining keng qamrovliligi va zamonaviyligi bilan bog'liq. Samarqand va Buxoroda ham bu ko'rsatkichlar 78% va 74% ni tashkil etadi. Bu esa transport sifatining umumiy sayyohlik tajribasiga ta'siri yuqori ekanini ko'rsatadi.

3-jadval

O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlanishda transport infratuzilmasini boshqarish strategiyasi

№	Yo'nalish	Taklif
1	Regional transport-turizm konsepsiyasi	Har bir turistik klaster uchun alohida transport sxemasi ishlab chiqish
2	Turistlar oqimini tahlil qilish	GPS va mobil ilovalar orqali harakat ssenariylarini kuzatish
3	Aqlli transport boshqaruvi	Elektron xarita, QR-navigatori, elektron chipta tizimlari
4	Pilot loyihalar	Turistik markazlar orasida intermodal transport sxemalarini sinovdan o'tkazish
5	Davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruv	Mahalliy tashuvchilar va turistik kompaniyalar hamkorligida marshrutlar tashkil etish
6	Jamoat transportida turizmga moslashgan xizmatlar	Tematik avtobuslar, QR-gidlar, fleks-katnovlar

O'zbekistonda yo'llar va temir yo'llar tarmog'i keng qamrovli bo'lsa-da, ularning sifatini oshirish va zamonaviylashtirish zarur. Bu ichki turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. 2025 yilga borib jamoat transporti bozorida 9.38% o'sish prognoz qilinmoqda. Bu esa transport xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi va infratuzilmani yaxshilash zarurligini ko'rsatadi. Xorazm viloyati misolida ko'rinib turibdiki, mahalliy hududlarda transport infratuzilmasi va turizm ob'ektlarini rivojlantirish orqali turistlar oqimini oshirish mumkin.

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish uchun transport infratuzilmasini yaxshilash, jamoat transporti xizmatlarini kengaytirish va mahalliy hududlarda turizm ob'ektlarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar.

Ichki turizm faoliyatini rivojlantirish masalasi jahon miqyosida strategik ahamiyat kasb etayotgan bir paytda, O'zbekiston uchun ham ushbu yo'nalish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tenglikni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va milliy madaniyatni keng targ'ib etish imkoniyati sifatida qaralmoqda. Ichki turizmning barqaror rivoji ko'plab omillarga bog'liq bo'lsa-da, ular orasida transport infratuzilmasi va uning samarali boshqarilishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, transport infratuzilmasi nafaqat turizmni moddiy ta'minlovchi asosiy infratuzilma, balki turistik tajribaning tashkil etuvchi qismi sifatida ham qaralishi lozim. Turistlar uchun yo'lning sifati, jamoat transportining mavjudligi va qulayligi, qatnov jadvali, xizmat madaniyati, axborot-kommunikatsiya xizmatlari - bularning barchasi turizm sifati va raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlanishda transport infratuzilmasini boshqarishda quyidagi asosiy xulosalarni keltirish mumkin:

1. Ichki turizmning rivoji transport infratuzilmasi sifat va boshqaruviga bog'liq. Jismoniy yo'llar uzunligi yetarli bo'lishi mumkin, biroq ularning xizmat darajasi, harakat xavfsizligi, qatnovlar logistikasi va infratuzilmaga bog'liq xizmatlarning tizimli tashkil etilmagani turizmning to'liq rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Xususan, transport xizmatlaridan qoniqish darajasi sayyohlarning umumiy taassurotiga bevosita ta'sir etadi.

2. Hududiy nomutanosiblik transport xizmatlarining asimmetrik taqsimlanishiga olib kelmoqda. Ayrim hududlar - masalan, Toshkent, Samarqand, Buxoro - transport tarmoqlari va qatnov xizmatlari bo'yicha yetakchi bo'lsa-da, tarixiy salohiyati yuqori bo'lgan Xiva, Shaxrisabz, Qashqadaryo kabi hududlarda transport xizmatlari kam va turizm logistikasi hanuzgacha yetarli darajada rivojlanmagan. Bu holat hududlar o'rtasidagi turizm rivoji templaridagi tafovutga olib kelmoqda.

3. Infratuzilmani boshqarishda inson markazlashgan va raqamli yondashuvlar yetishmayapti. Faqat yo'l qurilishi emas, balki transport qatnovlarini turistik talablar asosida tashkil etish, mobil ilovalar, onlayn xaritalar, GPS-navigatsiya, elektron to'lov kabi vositalarni keng joriy etish talab etiladi. Buning uchun raqamli transport boshqaruv platformalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

4. Mavjud tadqiqotlar nazariy jihatdan boy, ammo amaliyotga yetarlicha integratsiya qilinmagan. Mahalliy va xalqaro tadqiqotlarda transport va turizm o'rtasidagi bog'liqlik tan olingan bo'lsa-da, ularning natijalari amaliyotda to'liq tatbiq qilinmayapti. Bu yechimlarni amalga oshirish uchun dolzarblikka mos strategik dasturlar, pilot loyihalar va xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish kerak.

5. Davlat, xususiy sektor va jamoatchilik hamkorligi asosida boshqaruv modelini shakllantirish lozim. Mamlakatdagi barcha hududlar uchun yagona transport siyosatidan ko'ra, hududiy ixtisoslashgan va klasterlashgan transport-turizm strategiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu yerda mahalliy tashuvchilar, turistik operatorlar, hokimiyat va jamoatchilikni jalb etuvchi boshqaruv formati ustuvor bo'lishi kerak.

Adabiyotlar/Литература/References:

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.01.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4143188>.

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining 18.07.2019 yildagi "Turizim to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/4428097>.

UNWTO (2023). *Tourism and Transport: Building Bridges for Growth*. <https://www.unwto.org/tourism-and-transport-2023>.

World Bank (2022). *Transport Infrastructure for Sustainable Tourism Development in Central Asia*. <https://documents.worldbank.org/en/transport-tourism-central-asia>.

Каримов И.Х., Абдуллаев Ж.Х. (2020). Туристик инфратузилмани ривожлантиришда транспорт тармоқларининг аҳамияти. *Иқтисодий тараққиёт муаммолари*, №2(76), 57–63. <https://econs.uz/articles/2020/turizm-transport>.

Кудратов А. (2019). *Туризм логистикаси ва бошқарув усуллари*. Самарқанд: СТИ нашриёти. ISBN: 978-9943-21-328-5. <https://lib.samdu.uz/uz/book/view/4509>.

Мирзабеков Б.Б. (2020). Ички туризм ва транспорт инфратузилмаси: муаммолар ва ечимлар. *Туризм соҳасида илмий тадқиқотлар*, №1(5), 25–30. <https://turismscience.uz/articles/2020/internal-tourism>.

Юсупов С.Ю. (2021). Туризмда транспорт инфратузилмасининг аҳамияти ва унинг бошқарув стратегияси. *Ўзбекистон иқтисодиёти ва инновацион ривожланиш*, №4(12), 34–42. <https://iqtisodiyot.uz/articles/2021/yu-turizm-transport-strategiya>.